

## ALBER KAMYUNING „BEGONA” ASARIDAGI ONTOLOGIK MASALALAR TAHLILI

*Qorako‘z To‘lanboyeva Muxtorjon qizi*

*3-kurs Falsafa (Sharq falsafasi va madaniyati) ta‘lim yo‘nalishi talabasi*

*Ilmiy rahbar: Jasur Sulaymonov*

*PhD, Sharq falsafasi va madaniyati kafedrasida katta o‘qituvchisi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fransuz faylasufi, atoqli yozuvchi Alber Kamyuning „Begona” asari ontologik kategoriyalar asosida tahlil etiladi hamda unda ifodalangan ijtimoiy-falsafiy masalalar ko‘rib chiqiladi.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Albert Kamyu, ekzistensializm, falsafiy kategoriyalar, borliq, juft kategoriyalar, toq kategoriyalar, falsafa, befarqlik, axloq, absurdizm.

### ABSTRACT

In this article, the work “The Stranger” by the French philosopher and famous writer Albert Camus is analyzed based on ontological categories and the socio-philosophical issues expressed in it are considered.

**Key concepts and expressions:** Albert Camus, existentialism, philosophical categories, existence, even categories, odd categories, philosophy, indifference, ethics, absurdism.

### KIRISH

Asarning ontologik tahliliga o‘tishdan avval muallif va asar yozilishi tarixi bilan qisqacha tanishib chiqsak. Shu orqali yozuvchining nima sababdan bu asarni yozishga ehtiyoji bo‘lganini tushunishga harakat qilamiz.

Mashhur fransuz yozuvchisi, mutafakkiri, axloqshunosi, dramaturgi va ba’zi qarashlarga ko‘ra, „ateistik” ekzistensializmning asoschilaridan biri hisoblangan faylasuf olim **Albert Kamyu** 1913-yilning 7-noyabrida **Aljirning** Mondovi (hozirgi **Dream**) o‘lkasida fransuz-jazoirliklar oilasida dunyoga kelgan. Otasi **Lyusen Kamyu**. Onasi ispan millatiga mansub **Katrin Sante**.

**1923-yilda** boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Alberning o‘qishini davom ettirishga onasi va buvisini ancha qiyinchiliklar bilan bo‘lsa-da ko‘ndirgan. Chunki Alber juda iqtidorli bola edi. U litseyga kimgach, futbol bilan jiddiy shug‘ullanib yoshlar jamoasida to‘p surgan. Ammo **1930-yilda** Albertda sil kasali aniqlanadi, natijada o‘qishini oz muddatga to‘xtatgan, sport bilan esa umuman shug‘ullanmagan. Bu kasallik uni hayoti davomida juda ko‘p qiynagan.

U Jazoir universitetida falsafa bo'yicha tahsil olgan. 1940 yilda Ikkinchi jahon urushi paytida nemislar Fransiyaga bostirib kirganida u Parijda edi. Kamyu qochishga urindi, lekin Fransiya qarshilik ko'rsatish guruhiga qo'shildi va u erda qonundan tashqari gazeta hisoblangan Combatda bosh muharrir bo'lib ishlay boshladi. Urushdan keyin u mashhur shaxs sifatida tanildi va dunyo bo'ylab ko'plab ma'ruzalar o'qidi. Kamyu siyosiy jihatdan faol edi; u totalitarizm tufayli Iosif Stalin va Sovet Ittifoqiga qarshi bo'lgan chapning bir qismi edi. Kamyu axloqchi edi va anarxo-sindikalizmga moyil bo'lgan. U Yevropa integratsiyasiga intilayotgan ko'plab tashkilotlarning bir qismi edi. Jazoir urushi (1954–1962) davrida u ko'p madaniyatli va ko'p millatli Jazoir tarafdori bo'lgan neytral pozitsiyani saqlab qoldi, bu pozitsiya aksariyat partiyalar tomonidan rad etildi.

Falsafiy nuqtai nazardan, Kamyuning qarashlari absurdizm deb nomlanuvchi falsafaning yuksalishiga yordam berdi. Ba'zilar Kamyuning uni ekzistensialist deb ko'rsatish uchun qilgan ishini hisoblashadi, garchi u o'zi butun umri davomida bu atamani qat'iy rad etgan.

Ko'pgina ekzistensialist yozuvchilar absurdga murojaat qildilar, ularning har biri uning nima ekanligi va uning mohiyati nimadan iborat ekanligi borasida o'z talqiniga ega. Kamyuning "Absurd" haqidagi fikrlari uning birinchi turkum kitoblari va bu boradagi asosiy asari "Sizif haqidagi afsona" adabiy essesidan boshlanadi. 1942 yilda u "Begona" da bema'ni hayot kechirayotgan odam haqidagi hikoyani nashr etadi.<sup>1</sup>

Ayrimlar Albert Kamyuni yozuvchilikdan ko'ra ko'proq faylasuf va mutafakkir deb baholaydi. O'zi esa shunday degan: „Faqat obrazlar orqali fikrlash mumkin. Faylasuf bo'lishni istasang, romanlar yoz“.

Kamyu odob-axloqqa oid haqiqatgo'ylik, samimiylik, erksevarlik va insonparvarlik kabi fazilatlarini ulug'lagan. Yolg'onning har qanday ko'rinishiga nafrat bilan qaragan, insoniyat mavjud bo'lishining ijtimoiy va tabiiy ibtidolarini bir biriga zid qo'ygan. Balki shu tariqa, Alberning „**Begona**“ romani shov-shuvlarga sabab bo'lgandir. Ushbu asar kichik hajmli bo'lganligi bois, ba'zida uni **qissa** deb ham atashadi. **1940-yil** may oyida, Parij fashistlar tomonidan zabt etilishidan bir necha kun oldin, Kamyu „**Begona**“ asarining qo'lyozmasini tugatdi. Ushbu roman yozilishining asosiy g'oyasi **1937-yilda** paydo bo'lgan.

Alber Kamyuning **1937-yilning** aprel oyiga oid „Yon daftarchalar“ ida bo'lg'usi roman mavzusi belgilanib qo'yilgan: „**Hikoya: oqlanishni istamagan odam. U atrofidagilarning u haqida yuzaga kelgan tasavvurotini xush ko'radi. O'zining xaqligini bilishdan kifoyalani o'ladi. Buning behudaligi– taskinlik**“.

**1938-yil** dekabrda Kamyuning „Yon daftarchalar“ida romanning keyinchalik so'nggi va asosiy matnga kiritilgan ilk satrlarini topish mumkin: „**Bugun onam o'ldi.**“

<sup>1</sup> [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Albert\\_Camus](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Albert_Camus)

Yo kechamikan, bilmayman. G‘aribxonadan „Onangiz vafot qoldi. Ko‘mishi ertaga. Chuqur hamdardlik bildiramiz“ degan telegramma oldim. Tushunmaysan. Balki kecha o‘lgandir“.

Ushbu asar **1942-yilning** iyul oyida Parijdagi „Gallimar“ nashriyotida dunyo yuzini ko‘rgan va katta muvofaqqiyatlarga erishgan. Shuning bilan birgalikda XX asr fransuz adabiyotining eng ko‘p o‘qiladigan asariga aylangan.<sup>2</sup>

Mazkur asar adabiy tanqidchilarning yuqori bahosini olgan. Xususan, mashhur fransuz adabiy tanqidchisi **G.Pikon** o‘zining fikrlarini bildirib o‘tgan.

Yozuvchi va uning bu asariga oid ko‘plab fikr-mulohazalar mavjud. Bahslar ham uchrab turadi. Lekin bizning ayni damdagi maqsadimiz asarni ontologik jihatdan tahlil etish va uning ahamiyatini tushuntirishdir.

„Begona“ asari chindan ham katta hajmga ega bo‘lmagan, ammo zalvori og‘ir asar. Uni ilk bora o‘qigan odam asarga to‘g‘ri baho bera olmasligi uning asosiy jihatlarini anglab yetolmasligi mumkin. Chunki yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, Alber Kamyu iste‘dodli yozuvchi bo‘lish bilan birgalikda faylasuf hamdir. Shuning uchun qanday asar bo‘lmasin, uning muallifi bilan yaqindan „tanishib“ chiqish, hayot yo‘li va g‘oyalarini o‘rganish talab etiladi. Axir yozuvchi o‘z asarlari orqali g‘oyaviy dunyosini sizga tanishtirishga urinadi. Bu esa o‘quvchi uchun katta mas‘uliyat.

Har bir yozuvchi asarlarida o‘zi yashab o‘tgan davrning ruhiyatini oz bo‘lsa-da yoritib berishga harakat qiladi. (Ayni bir tarixiy davrga bag‘ishlangan asarlar bundan mustasno). „Begona“ asari ham qaysidir ma‘noda shunday xususiyatga ega. Buni asoslash uchun qahramonlarning fikrlashi, ularni o‘rab turgan muhit, narsa va buyumlar, jamiyatning ilgari surayotgan g‘oyalari, zaruriyatlarini misol keltirish mumkin. Shuning barobarida o‘sha davr insonlarining fe‘l-atvoriga, ma‘naviy qadriyatlariga ham duch kelamiz „...**Mari tomonga qaraganim yo‘q. Ulgurmadim, chunki rais menga qanaqadir balandparvoz iboralar bilan fransuz xalqi nomidan ochiq maydonda boshimni tanimdan judo qilinishini aytdi. Men go‘yo hammaning yuzidan bitta-yu bitta tuyg‘uni o‘qiyotgandek edim...**“

Endi asarni falsafiy kategoriyalar asosida ontologik masalalarni ko‘rib chiqamiz va tahlil etamiz.

Asar diqqat markazida aljirlik **Merso** ismli kishi turadi. Qahramonning jon taslim qilgan onasi oxirgi manziliga oshiqayotgan bir paytda, **Merso** ikki chashka qahvasini hotirjamlik bilan ichib, **borliqdan** chetda begona yoki yod kishidek misli hayolotda uchayotgan **begona** edi. U zavq bag‘ishlaydigan barcha narsalarni: dengiz, sharob, ayollarni ko‘p xush ko‘radi. **Quyosh**— Mersoning tabiiy mavjud bo‘lishining o‘ziga xos ramzi. Merso sud oldida yuzma-yuz turar ekan, arabni o‘ldirishlarining

<sup>2</sup> Albert Kamyu, „Begona“, „Yoshlar matbuoti“ 2023-yil

sababi **quyoshda**, deb ta'kidlaydi. Merso issiq harorat va chanqoqdan qiynalib, soya va soy bo'yida salqin shaboda qidiradi. Salqin shabadani arab to'sgani uchun o'ldiradi. Ayni shu o'rinda **zarurat va tasodif** kategoriyasini aytib o'tishimiz mumkin. **Zarurat**—sodir bo'lishi kerak bo'lgan va biz kutgan natija. **Tasodif** esa ana o'sha kutilgan voqelikning aksi bo'lishi yoki butunlay o'zgarib ketishi. Merso uchun issiq havoda soya joyning sohil bo'yida bo'lishi zarurat edi. Ammo uning nazdida arabning u izlagan joyda turganligi tasodif. Bundan ko'rinadiki, bizga qo'l kelmagan natija tasodifga aylanishi mumkin. Lekin bu tasodif aslida boshqalar uchun o'z mohiyatini yo'qotadi.

Sudda Merso aybini hech ham inkor qilmadi. Bundan tashqari, insoniy axloq va adolatni ikkiyuzlamachilik va yolg'onda ayblab, ularni bir-birlariga qarama-qarshi qo'yadi. Sud uni o'limga mahkum etadi. Bu vaziyatda **sabab va oqibat** kategoriyasini keltirishimiz o'rinli. **Sabab**—sodir bo'lgan voqeaning kelib chiqish asosi. **Oqibat** esa sababning realikka ko'chishi orqali kelib chiqqan natija. Bu yerda asosiy masala Mersoning aybini inkor qilmaganligida emas. Balki u o'zligini to'laqonli ravishda anglab yetolmaganligida, hayotga to'g'ri baho bera olmaganligida. Bularni tushunib yetmagan inson sabab va oqibat qanday ekanligini bilishga ehtiyoj sezmaydi.

Merso o'limidan oldin ruhoniy bilan janjallashishga ham ulguradi, chunki iymone'tiqodni niqobdagi yolg'on deb baholaydi. Shu tariqa, Mersoni qotillik uchun emas, balki jamiyatda qabul qilingan, odamlar orasidagi munosabatlarning shartli shakllarini mensimaslikka uringanligi uchun, o'yin qoidalarini buzganligi uchun **mohiyat** bo'yicha sud qilinadi. Bu yerda **butun va qism** kategoriyasi bo'yicha tahlil qilish mumkin. Sababi qahramonning sudda qotilligi ikkilamchi holatga aylanib, birlamchi vaziyat uning onasi o'limiga kuyinmaganligida. Ya'niki, **qism orqali butun ifodalanmoqda**. Qotillik butun bo'lsa, uning sabablari qism. Sabablarni esa aloqadorlikka ega bo'lmasa ham keltirsa bo'ladi. Asarda prokuror shunday dalil va sabablarni keltirgan.

Kimdir Mersoning qotillik qilganiga qo'shnisi **Raymonni** sababchi deb ko'rsatishi mumkin. Chunki Mersoning o'zi Raymonni do'stim deb qabul qilgan, hatto ba'zi „ishlariga“ sherik ham bo'lgan. „Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi“, qabilida Raymonni sababchi qilib ko'rsatish xato bo'ladi. Zaro, qozonni qora qilgan insonning o'zi. Mersoning tanlovi o'z qo'lida edi. Uni hech kim majburlamadi. Raymondan uzoqroq yurishi ham yoki uning ishlariga aralashmasligi ham mumkin edi. Afsuski Merso hayotidagi o'z o'rnini topolmay, adashgan bir inson. U maqsadsiz harakat qiladi. Shuning uchun qilayotgan ishlari unga ahamiyatsiz.

Tutqinlik befarq insonni ham o'ziga keltiradi. Erkidan ayrilgan qush qafasda uchish imkoniyati bo'lsa-da, orzusi faqat uchish bo'ladi. Xuddi Merso singari. U ozodlikdan mahrum etilgach, aslida hayotda yashash qanday ekanligini ozroq anglab yetdi. Lekin u kech qolgan edi. Chunki Qamoqdagi inson o'ylab olish uchun yetarli

vaqti bo'ladi deb o'ylaydi. „...Masalan, birdaniga qumloqda yastanib yotgim, dengizga tushgim kelib qoladi. Mana, oyog'imga ilk to'lqinlar shaloplab uriladi, suvga sho'ng'iyman, shunday aniq his qilamanki, qushday yengil tortamanki, o'zimni erkin hisoblaman,—shunda birdan tegramni qamoqning to'rt devori qurshab oladi...“

Mersoning ushbu holatida **mohiyat va hodisa** kategoriyasini izohlamoqchiman. **Mohiyat**— biror narsa yoki voqeaning asosi, bajaradigan vazifasi. Uni substansiya deb ham tushunish mumkin. **Hodisa** esa ana shu mohiyatning voqelikda aks etishi, realikka ko'chishidir. Ya'niki Merso yashashdagi mohiyatini anglay olmagan inson. Hayotdagi vazifasini bilmaslik orqali kelib chiqqan **hodisa**, qahramonning taqdiri o'zingizga ma'lum.

Merso degani o'zi kim? Yovuz yoki alamzada, ahmoq hayvon yoki donishmand, insondan past yoki insondan oliy? Ushbu savollar bilan munozaralar serob. Mazkur so'roq Kamyuga berilganda, u Mersoni „**Biz arziydigan yagona Iso**“ deb javob bergan.

Asardagi ayrim qahramonlarning ismlari ham ko'pgina ma'nolarni anglatadi. Masalan, ikki so'zdan iborat Merso familiyasi (**Mersault**) „**o'lim**“ va „**quyosh**“ hamda Selest (**Celeste**) ismi esa „**osmonli**“ demakdir. Fransuz tadqiqotchilarining ta'kidlashlaricha, romanning asosiy qahramoni Mersoning badiiy obrazini yaratish uchun manba bo'lgan shaxs Alber Kamyuning tanishi, onasini dafn etib kinoga borganligi haqida unga so'zlab bergan rassom **Sover Gal'yerodir**.

Shu bilan birga, asar qahramoni Merso ekzistentsialistik variantni ifodalovchi Jan-Jak Russoning „**tabiiy inson**“ini umumlashtirgan obrazi hisoblanadi. Merso jamiyat bilan ichki aloqalarni uzib, instinktlarga itoat qilib yashaydi. U deyarli g'ayrushuuriy holda odam o'ldiradi.

## XULOSA

„...Va doim o'ylardim: agar meni biron qurigan daraxt tanasiga tiqib, shuning ichida yashashga majbur etishsa, mayli, hech bir narsa qilishga iloj bo'lmasin, faqat boshim ustida osmon yorishib kelayotgani ko'rinib tursa, shunga ham asta-sekin ko'nikaman. Bironta qush uchib o'tishini, bulutlarning suzishini kutib turaverardim...“ Asar qahramoni Merso ayni mana shunday inson edi! U hayotga juda yengil qarar, „kunim o'tsa bo'ldi“, deydiganlardan edi. Nimaga qo'l urmasin, faqatgina o'zini nima bilandir band qilish niyatida qilardi, xolos. Unga hamma narsa ma'nosizday tuyulardi, go'yo. Hatto onasini so'nggi manziliga kuzatar chog'ida, uni oxirgi bor ko'rishga zarurat sezmedi. Chunki u bunday tuyg'ularni mohiyatini anglay olmasdi. Mana shuning uchun ham u o'z hayotida begona edi. Xuddi boshqaning taqdirida yashayotgan kimsadek. Uning hayollarida aniq bir maqsad hech ko'zga tashlanmaydi. Atrofidagi insonlarga nisbatan shunchaki, befarq munosabatda bo'ladi.

Afsuski, qahramonimiz, qamoqqa tushgandan so'ng, hayot aslida qanchalar e'tiborga molik ekanligini, jamiyatdan ayro holda yashab bo'lmashligini kech tushunib yetdi. Shunday bo'lsa ham u qaysar va o'jar edi. Tan olishni ojizlik deb qabul qilardi. Balki shu jihatlari uni begonaga aylantirgandir... Lekin bir insonning bunday holga tushib qolishining, albatta, sabablari bo'lishi kerak. Ona qornidan hech kim tarbiyalanib tug'ilmaydi. Vaholanki shunday ekan, Mersoning ahvoliga nisbatan keng mulohazali bo'lish o'rinlidir. Chunki taqdir hukmi bari bir o'z so'zini aytadi. Biz esa bir o'tkinchimiz xolos.

Asarni ontologiya jihatdan tahlil etishdan maqsad nima edi degan savol tugiladi. O'rinli savol. Bizning tanqidiy fikrlashimiz va har bir masalada o'z mulohazamizga ega bo'la olishimizda katta o'rin tutadi. Hayotimizdagi bo'layotgan jarayonlarga nisbatan bizning munosabatimiz qanday shakllanishi kerakligini tushuntiradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Albert Kamyu ijodida ekzistensializmdan tashqari **absurdizm** qaraslari ham mavjud. Kamyu Sartrning absurd haqidagi ta'rifiga amal qiladi: "Ma'nosiz narsa. Shunday qilib, insonning mavjudligi bema'nidir, chunki uning tasodifiyligi tashqi asos topmaydi". Kamyuning o'zi ta'kidlaganidek, absurd "inson ehtiyoji va dunyoning asossiz sukunati o'rtasidagi qarama-qarshilik" natijasidir.<sup>3</sup> Garchi absurdlikdan qutulib bo'lmaydi deb qaralsa-da, Kamyu nigilizm tomon og'ib ketmaydi. Ammo absurdlikni anglashda bir qancha savollar kelib chiqadi. Masalan, nima uchun kimdir yashashni davom ettirishi kerak? O'z joniga qasd qilish – bu Kamyu insoniy qadriyatlar va erkinlikdan voz kechish sifatida qat'iy rad etadigan variant. Aksincha, u bema'nilik hayotimizning bir qismi ekanligini qabul qilishni va u bilan yashashimizni taklif qiladi. Be'manilik deganda hayotda uchraydigan qoniqish hissi tug'dirmaydigan hodisalar sifatida ko'rishimiz mumkin.

Bularni o'quvchi har bir insonga shuni aytamanki, hayotni qadrlab, maqsadlaringiz bilan mushtarak bo'lib yashang. Chuni bu ham bir ne'mat. Unutmang, doim ikkinchi eshik avvaldan mavjuddir!

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Albert\\_Camus](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Albert_Camus)
2. Albert Kamyu, „Begona“, „Yoshlar matbuoti“ 2023-yil
3. D.A. Alimova; X.A. Alikulov; Z.X. Arifxanova; B. Babadjanov; E. Babaeva; I.N. Bekmurotov, Imomalieva R.M.; M.M. Qodirov; M.M. Komilov; B.R. Karimov; R.R. Karimov; tarix fanlari doktori A. Muminov; R.R. Nazarov; G.V. Nikitchenko; M.N. Nuritdinov; D.A. Pulatova; S. Sanginov; B.O. Turaev; U.J. Xaydarov; O.N. Shamatov; S. Yuldashev. „Falsafa“ Toshkent –2006
4. <https://plato.stanford.edu/entries/camus/>
5. Yozuvchining hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar professor A.X.Saidovning keltirgan adabiy tahlilidan foydalanildi.

<sup>3</sup> [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Albert\\_Camus](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Albert_Camus)